



## Aholi umumiy daromadlari

### 2018 yilning yanvar-sentyabr holatiga

#### RAQAMLAR:

- Aholining umumiy daromadlari - **173,0 trln.so'm**
- Aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati - **111,4 %**
- Aholi jon boshiga umumiy daromadlari - **5 262,8 ming so'm**
- Aholi jon boshiga real umumiy daromadlari-**4 452,5 ming so'm**
- Aholi jon boshiga umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati - **109,5 %**.



Mamlakat aholisining farovonlik darajasini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlaridan biri aholi daromadlari hisoblanadi.

**Aholining umumiy daromadlari** - majburiy to'lovlar va boshqa ajratmalarni amalga oshirgunga qadar bo'lgan yalpi daromadni ifoda etadi.

Aholining umumiy daromadiga pul daromadlari va natura shaklidagi daromadlar kiradi hamda doimiy asosda, takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan tushumlardan tarkib topadi.

Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilning yanvar-sentyabr holatiga aholi umumiy daromadlari 173,0 trln. so'mni, bir kishiga o'rtacha hisoblaganda 5,3 mln. so'mni tashkil etdi.


**Real daromadlar** nominal daromadlarni chakana narxlar va tariflar o'zgarishini hisobga olgan holda nominal daromadlarning real xarid qilish qobiliyatini ifodalaydi.

Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholining umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati 111,4 % ni, aholi jon boshiga umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati 109,5 % ni tashkil etdi.



# Aholi umumiy daromadlari

2018 yilning yanvar-sentyabr holatiga O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarining hajmi va real o'sish sur'atlari



Aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlari bo'yicha Toshkent shahrida (11 728,5 ming so'm) hamda Navoiy (7999,5 ming so'm), Buxoro (6158,9 ming so'm), Toshkent (5655,7 ming so'm) va Xorazm (5320,2 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlari qayd etilganligi kuzatildi. Aholi jon boshiga daromadlarning eng quyi ko'rsatkichlari esa Namangan (3827,2 ming so'm) viloyatida qayd etildi.


Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sishi Xorazm viloyatiga (14,1%) to'g'ri keladi. Shuningdek, Surxondaryo (13,6%), Buxoro va Samarqand (11,7%), Namangan (11,0%), Qashqadaryo (10,4%), Andijon (10,1%) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi (10,7%) aholi jon boshiga umumiy daromad ko'rsatkichlarining real o'sishi respublika darajasidan yuqorini tashkil etgan.

## Aholi umumiy daromadlari

Aholining umumiy daromadlari hajmining sezilarli darajada o'sishi asosan umumiy daromadlar tarkibida 65,0% ulushga ega bo'lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) va 28,6 % ni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o'zgarishi hisobiga yuzaga kelgan.




### Aholi umumiy daromadlari tarkibi, %



# Aholi umumiy daromadlari

2018 yilning yanvar-sentyabr holatiga O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibi  
(hudud aholi umumiy daromadlariga nisbatan, %)



Hududlarning aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) eng yuqori ulushi Navoiy (80,5 %) viloyatida kuzatildi. Aksincha, Farg'ona va Buxoro viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Namangan, Samarqand, Xorazm viloyatlari hamda Toshkent shahrida o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.

Shuningdek, transfertlardan olingan daromadlar bo'yicha Xorazm va Samarqand viloyatlarida aholi umumiy daromadlariga nisbatan 36 % dan yuqorini tashkil etgan bo'lsa, Andijon va Namangan viloyatlarida ushbu ko'rsatkich aholi umumiy daromadlarining uchdan bir qismini tashkil etdi.

# Aholi umumiy daromadlari

## Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar

Aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar sezilarli ulushni tashkil etadi. 2018 yilning yanvar-sentyabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi 65,0 % ni hamda nominal o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan 121,7 % ni tashkil etdi.


Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning aholi umumiy daromadlari tarkibidagi bunday ulushi va o'sish sur'ati aholi umumiy daromadlarining nominal hajmini 15,3 % ga o'sishini ta'minladi.

O'z navbatida, mehnat faoliyatidan olingan daromadlar, yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlardan shakllanadi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida yollanma ishchilarning daromadlari 22,2 % ga oshdi va aholi umumiy daromadlaridagi ulushi 30,8 % ni tashkil etdi.



## 2018 yilning yanvar-sentyabr holatiga hududlar bo'yicha yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, %)



## Aholi umumiy daromadlari


Yollanma ishchilar daromadlarining eng yuqori nominal o'sish sur'ati Toshkent viloyati (126,7 %) va Toshkent shahri (125,3 %), shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi (124,4 %), Surxondaryo, Andijon (124,0 %) hamda Xorazm (122,8 %) viloyatlarida qayd etildi.

Aholi umumiy daromadlarini hisoblashda mehnatga haq to'lash ko'rinishidagi daromadlarga xodimlarga hisoblangan ish haqi, rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan barcha to'lovlar, kompensatsiya to'lovlari va ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash kiradi. Shuningdek, mehnatga haq to'lash ko'rinishidagi daromadlarga ommaviy axborot vositalari xodimlariga to'lovlar, ratsionalizatorlik takliflari uchun va mualliflik huquqiga ega bo'lmagan shunga o'xshash mukofotlar kiradi.

Shuningdek, mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning keyingi asosiy manbai mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar hisoblanadi. Mazkur sohaga asosan aholining iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati kiradi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 121,3 % ni tashkil etdi. Aholi umumiy daromadlari hajmida ushbu daromad manbai katta ahamiyatga ega bo'lib, uning ulushi 34,2 % ni tashkil etdi.

### Hududlar bo'yicha umumiy daromadlar tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning ulushi, %




## Aholi umumiy daromadlari

Hududlarda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning ulushi turlicha va 16,9 % dan (Toshkent shahrida) 46,0 % gacha (Jizzax viloyatida) o'zgarib turadi. Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning hissasi Surxondaryo (43,5%), Toshkent (42,1%), Sirdaryo (40,0%), Buxoro (39,0%), Andijon (38,2%), Samarqand (37,6%), Navoiy (37,3%), Qashqadaryo (35,9%), Namangan (35,1%) va Farg'ona (35,0%) viloyatlarida boshqa daromad manbalariga nisbatan yuqori ekanligi kuzatildi.

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar egallagan ulushiga ko'ra aholi jami daromadlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1% ga o'sishi umumiy daromadlar hajmining 0,37 % ga o'sishiga olib keladi.

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning aholi umumiy daromadlariga nisbatan ulushi va ularning o'sish sur'atining yuqoriligi yalpi daromadlarning o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati hududlar umumiy daromadlarining o'sish sur'atini uchdan bir qismidan ortig'ini ta'minlab berdi.

### Hududlar bo'yicha mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1 % ga o'sishining aholi umumiy daromadlari hajmining o'sishiga ta'siri, %



## Aholi umumiy daromadlari


Jizzax viloyatida aholi umumiy daromadlari tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning ulushi 46,0 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan nominal o'sish sur'ati 127,9 % ni tashkil etdi. Birgina ushbu turdagi daromadlarning o'zi Jizzax viloyati aholi umumiy daromadlarining 13,0% ga o'sishini ta'minlab berdi.

Xuddi shunday Surxondaryo viloyatida 43,5 % ulush va 127,6 % o'sish sur'ati, aholi umumiy daromadlarining 12,9 % ga o'sishini ta'minlab berdi.

### Mol-mulkdan olingan daromadlar

Aholining daromad manbalaridan yana biri bu mol-mulkdan olingan daromadlar hisoblanadi. 2018 yilning yanvar-sentyabr oylari dastlabki yakunlariga ko'ra, aholining mol-mulkdan olgan daromadlari 7,4 trln.so'mni tashkil qildi. 2017 yilga nisbatan o'sish sur'ati esa 134,2 % ni tashkil etdi. Aholining umumiy daromadlari tarkibida mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 4,3 % ni tashkil etdi. Mol-mulkdan olingan daromadlar, o'z navbatida, foizlar, dividendlar, mualliflik haqi va boshqa mulkiy daromadlardan iborat.

### Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibi, %





## Aholi umumiy daromadlari

Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida boshqa mulkiy daromadlar asosiy ulushga ega bo'lib, uning ulushi 62,8 % ni tashkil qildi. Keyingi o'rinlarda dividendlar - 25,6 % ni, obligatsiyalar, depozitlar va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizlar va mualliflik haqi - 11,6 % ni tashkil qildi.

Aholi umumiy daromadlari hajmining o'zgarishiga mol-mulkdan olingan daromadlarning ta'siri juda kam. Joriy davrda mol-mulkdan olingan daromadlar aholi umumiy daromadlari hajmining 1,4 % ga o'sishini ta'minladi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida mol-mulkdan olingan daromadlar hajmining uchdan ikki qismi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, 69,0 % ni tashkil etdi. Keyingi yuqori ulushga ega bo'lganlari Toshkent (6,4 %), Samarqand (4,2 %), Farg'ona (3,5 %) va Namangan (3,3%) viloyatlari hisoblanadi.


### Transfertlardan olingan daromadlar



Aholining umumiy daromadlari tarkibida transfertlardan olingan daromadlar ham muhim ahamiyatga ega. 2018 yilning yanvar-sentyabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra o'tgan yilning mos davriga nisbatan transfertlardan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 162,9 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ushbu davrda aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi 5,5 % punktga oshdi va 28,6 % ni tashkil etdi.

### Ijtimoiy transfertlarning turlari bo'yicha o'sish sur'ati, %



## Aholi umumiy daromadlari

Transfertlardan olingan daromadlar ijtimoiy transfertlar va boshqa joriy transfertlardan tashkil topadi.

Ijtimoiy transfertlar o'z navbatida, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalardan iborat. Joriy davrda ijtimoiy transfertlarning aholi umumiy daromadlari tarkibida ulushi 10,9 % ni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,6% ni tashkil qildi.



O'tgan davr mobaynida pensiya, nafaqa va stipendiyalarning o'zgarishi aholi umumiy daromadlarining 2,5 % ga o'sish imkonini berdi.

Ijtimoiy transfertlarning o'sishiga uning tarkibida asosiy ulushga, ya'ni 83,6 % ga ega bo'lgan pensiyalar ta'sir ko'rsatdi.

2017 yil mos davri ma'lumotlari bilan taqqoslaganda pensiyalarning o'sish sur'ati 120,5% ni, nafaqalarning o'sish sur'ati 127,0%ni, stipendiyalarning o'sish sur'ati esa 128,7%ni tashkil etdi.


Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida jami 2,3 trln. so'm miqdorida nafaqa va moddiy yordamlar ajratildi. Shundan 51,8% byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtiriladigan davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar va 48,2% respublika va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan.

2018 yilning 9 oyligi bo'yicha boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining nominal o'sish sur'ati 205,8 % ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,4 % punktga oshdi. Ushbu daromadlarning bunday sezilarli o'zgarishi aholi umumiy daromadlari nominal qiymatini 12,0 % ga o'sishini ta'minlab berdi.



# Aholi umumiy daromadlari

Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining ulushi, %



Joriy davrda ayrim hududlar aholi umumiy daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalarining ulushi sezilarli darajada yuqori bo'lib, Xorazm (30,2%), Samarqand (24,8%), Andijon (24,4%) viloyatlarida eng yuqori ulushni tashkil etdi. Shuningdek, Buxoro (22,6%), Namangan (21,9%), Surxondaryo (21,0%), Farg'ona (19,1%) va Qashqadaryo (18,2%) viloyatlarida ham respublika darajasidan yuqori ulushni tashkil etdi.


Shuni ta'kidlash lozimki, 2018 yil yanvar-sentyabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra aholi umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi 55,9 % ni tashkil etdi.

# Aholi umumiy daromadlari



Kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarda hududlarning ulushi turlicha: eng ko'p ulush Toshkent shahri (15,8%) hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, eng kam ulush esa Sirdaryo viloyati (2,4%) hissasiga to'g'ri keldi.

## Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi, %



Aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar Jizzax (62,7%), Surxondaryo (60,8%), Sirdaryo (59,1%), Samarqand va Buxoro (59,0%) hamda Xorazm (57,7%) viloyatlarida sezilarli ulushni egalladi.

**Davlat statistika qo'mitasi Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari statistikasi boshqarmasi**  
Nashr uchun mas'ul: **J.Hakimov**  
Aloqa telefoni: (71) 230-81-66